

O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

YALQABANGAN VA AMALGAN KIRG‘ILGAN

UZBEKISTON RESPUBLIKASI Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
Toshkent shahridagi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga  
tashrif etilgani - so‘zli bosq‘i bilan belgilangan


YALQABANGAN

UZBEKISTON RESPUBLIKASI Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

**60320400 – Kutubxona-axborot faoliyati  
(kutubxonachilik va bibliografiya)  
bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari**

UZBEKISTON RESPUBLIKASI Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
Toshkent shahridagi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga  
tashrif etilgani - so‘zli bosq‘i bilan belgilangan

Toshkent-2023



## **ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti.

## **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2023-yil “\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlanga.

## **JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablarini “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>60320400-Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiyo tavsifi.....</i>	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi .....	4
1.1.1.	<i>60320400-Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talabining qo‘llanishi.....</i>	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	<i>60320400-Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....</i>	4
1.2.1.	<i>60320400-Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari.....</i>	4
1.2.2.	<i>60320400-Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....</i>	5
1.2.3.	<i>60320400-Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari.....</i>	5
1.2.4.	<i>60320400-Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrularning kasbiy vazifalari.....</i>	5
2.	<i>60320400-Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrularning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....</i>	7
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarini egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	8
2.3.1.	Kvalifikatsiya.....	8
2.3.2.	<i>60320400-Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar....</i>	8
2.3.3.	<i>60320400-Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi.....</i>	9
	<b>Bibliografik ma’lumotlar.....</b>	<b>11</b>
	<b>Kelishuv varag‘i .....</b>	<b>12</b>

**1. 60320400 – Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi**

**60320400 – Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya)** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining meyoriy muddati 4 yil.

**1.1. Qo‘llanish sohasi**

**1.1.1. 60320400 – Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya) ta’lim yo‘nalishi malaka talabining qo‘llanilishi.**

Malaka talabi **60320400 – Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya)** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

**1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur ta’lim yo‘nalish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasasining boshqaruva xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

- ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va o‘quv dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

- oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

**1.2. 60320400 – Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

**1.2.1. 60320400 – Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari:**

**60320400 – Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya)** – “Jurnalistika va axborot” ta’lim sohasiga oid ta’lim yo‘nalishi bo‘lib, ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, Respublika bolalar

kutubxonasi, Republika ko‘zi ojizlar kutubxonasi, Qoraqopog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri va tumanlar axborot-kutubxona markazlari, maktab kutubxonalarini, Oliy ta’lim muassasalarining axborot-resurs markazlari, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining kutubxonalarini hamda fuqarolar o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va tijorat tashkilotlarining kutubxonalarida kompleks masalalarni yechish, kutubxona-axborot faoliyatini boshqarish, sohaga tegishli muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan vositalar, usullar majmuasini qamrab oladi.

**1.2.2. 60320400 – *Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:***

Kutubxona-axborot tizimlari va tarmoqlari, fan va ta’limga tegishli ma’lumotlar bazalari, kutubxona-axborot jarayonlari, kutubxona-axborot faoliyatining dasturiy ta’minoti, kutubxona-axborot resurslari, ma’naviyat va ma’rifat targ‘ibot markazlaridagi jarayonlar, axborotni to‘plash, qayta ishslash, saqlash, qidirish, uzatish, kutubxona-axborot xizmatlarini ko‘rsatish, kutubxonalar fondlarini shakllantirish, elektron kutubxona yaratish: elektron katalog, to‘liq ma’lumotlar bazalarini shakllantirish, yig‘ma elektron katalog yaratish, korporativ axborot-kutubxona tizimlari va tarmoqlari orqali fan va ta’limga tegishli ma’lumotlarga ega bo‘lishni ta’minalash, kutubxonalar faoliyatini tashkil qilish va boshqarish, kutubxona-axborot faoliyatini rivojlantirishga oid ishlarni olib borish, aholining mutolaa madaniyatini shakllantirish, O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosini muhofaza qilish va targ‘ib etish bilan bog‘liq tashkiliy va ijodiy ishlarni tashkillashtirish, aholi o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarni targ‘ib etish, kutubxonashunoslik, bibliografiyashunoslik va kitobshunoslik ixtisosligi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot jarayonlari.

*60320400 - Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan keyin, professional talim muassasalarida ta’limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o‘qitish bo‘yicha pedagogik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘ladi. Bakalavriatning professional ta’lim yo‘nalishlari bundan mustasno.*

**1.2.3. 60320400 - *Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:***

- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *ishlab-chiqarish va xizmat ko‘rsatish;*
- *ma’naviy-ma’rifiy;*
- *ilmiy-tadqiqot;*

**1.2.4. 60320400 - *Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.***

*60320400 – Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda*

bakalavr kasbiy faolyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

**Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

- kutubxona -axborot faoliyati jarayonlarini boshqarish;
- boshqaruv qarorini qabul qilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimlaridan foydalangan holda axborot-kutubxona faoliyati jarayonlari sifatini baholash metodlari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va hayotiy faoliyat xavfsizligi, texnika xavfsizligi talablari asosida kutubxona-axborot faoliyati jarayonlari monitoringini yuritish;
- kasbiy muammolar yechimini topish;
- fikrlar xilma-xilligi sharoitida boshqaruv qarorini qabul qilish;
- bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;
- elektron katalog ma’lumotlar bazasini shaklantirish;
- aholi o‘rtasida mutolaa madaniyatini o‘stirish usullarini joriy etish;
- aholiga kutubxona-axborot xizmatini ko‘rsatish.

**Ishlab-chiqrish va xizmat ko‘rsatish faoliyatida:**

- kutubxona-axborot faoliyati bo‘yicha zamonaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo‘llash;
- elektron katalog ma’lumotlar bazasini shakllantirish;
- avtomatlashtirilgan axborot-kutubxona tizimini boshqarish;
- elektron kutubxona yaratish va yuritish.
- kutubxona-axborot faoliyati sohasida tegishli texnologiya va texnik vositalardan foydalanishning samaradorligi ko‘rsatkichlarini hisoblash va baholash;
- kutubxona-axborot faoliyatida ishlab chiqrish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan moddiy va mehnat resurslarini rejalaشتirish;
- kutubxona-axborot faoliyati sohasi bo‘yicha aholining kitobxonlik va mutolaa madaniyatini ko‘tarishga xizmat ko‘rsatishni tashkil etish;
- kutubxona-axborot faoliyati sohasi bo‘yicha aholiga kitobxonlik xizmat ko‘rsatishning texnologik jarayonlarini ishlab chiqish va qo‘llay olish.

**Ma’naviy-ma’rifiy faoliyatida:**

- ma’naviy-ma’rifiy ishlarni rejalaشتira olishi, uni tashkil etish metodikasini egallash, jamiyat a’zolari ongiga milliy istiqlol g‘oyasini singdirish;
- globallashuv jarayonlarida milliy madaniyat va ma’naviyat haqida tushuntirish ishlarini olib borish;
- mahallalarda ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha individual suhbat o‘tkazish;
- milliy urf-odat va marosimlarni o‘tkazishda, umuminsoniy qadriyatlar, mehr-muruvvat, bag‘rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarni ochib berish.

### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

- respublika va xorijda chop etilgan kutubxonachilik va bibliografiya ishiga hamda kitobshunoslikka oid ilmiy-tadqiqotga oid axborotlarning ilmiy manbalarini o‘rganish;
- kutubxona-axborot faoliyati sohasi obyekti va predmetlarini nazariy va amaliy muammolariga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda ishtirok etish;
- mavzu bo‘yicha ilmiy ma’lumotlarni yig‘ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma’lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;
- ilmiy-tadqiqot natijalarni va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish.

## **2. 60320400 – Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

### **2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;
- dunyoqarash bilan bog‘liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo‘lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;
- axborot-kutubxona sohasida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o‘z kasb faoliyatida foydalana bilishi;
- axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, o‘z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;
- tegishli bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida ilmiy tassavvur hamda e’tiqodga, o‘zini jismoniy chiniqtirish o‘quv va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.

### **2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

- meyoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatda foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- axborotni to‘plash, qayta ishlash, saqlash, qidirish, uzatish, axborot-kutubxona xizmatlarini ko‘rsatish;
- axborot-kutubxona fondlarini shakllantirish;
- axborot-kutubxona muassasalarining ish jarayonlarini avtomatlashtirish;
- axborot-kutubxona tizimlarini loyihalashtirish;
- elektron kutubxona yaratish: elektron katalog, to‘liq ma’lumotlar bazalarini shakllantirish;

- yig‘ma elektron katalog yaratish, korporativ axborot-kutubxona tizimlari va tarmoqlari orqali fan va ta’limga tegishli ma’lumotlarga ega bo‘lishni ta’minlash;
- axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini tashkil qilish va boshqarish;
- axborot-kutubxona tizimida kutubxonachi-bibliograf, axborot-kutubxona faoliyati sohasini rivojlantirishga oid ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish kabi ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

### **2.3. Umumiylar va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.**

Talabalar umumiylar va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko‘nikmalarni egallashi o‘quv rejasiga mantiqiy ketmaketligda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o‘zlashtirish, amaliyotlarni o‘tish hamda boshqa o‘quv mashg‘ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bevosita umumiylar va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko‘nikmalarni ta’minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta’lim yo‘nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo‘shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabanining shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

#### **2.3.1. Kvalifikatsiya: Kutubxona-axborot faoliyatida kutubxonachi – bibliograf, arxivchi**

#### **2.3.2. 60320400 – Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya) ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar:**

O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta’lim shakli uchun fanlarga ajratilagan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	5760	192
Tanlov fanlar	300	10
Malakaviy amaliyot	690	23
Yakuniy davlat attestatsiyasi	450	15

**2.3.3. 60320400 – Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi:**

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o‘tiladigan semestr
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>5760</b>	<b>192</b>	
1.01	O‘zYT 20014	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	FAL 20014	Falsafa	120	4	3
1.03	DIN 20014	Dinshunoslik	120	4	2
1.04	O‘z RT 20014	O‘zbek (rus) tili	120	4	1,2
1.05	XT 20014	Xorijiy til	120	4	1,2
1.06	KNM 20012	Kasbiy nutq madaniyati	60	2	5
1.07	AT 20014	Axborot texnologiyalari	120	4	3,4
1.08	JST 20012	Jismoniy tarbiya va sport	60	2	1
1.09	KTK 200112	Kutubxonashunoslik	360	12	1,2,3
1.10	O‘z XKIT 20014	O‘zbekiston va xorijda kutubxonachilik ishi tarixi	120	4	3
1.11	KTDTT 20018	Kutubxonalarning dasturiy va texnik ta’minoti	240	8	4,5,6
1.12	KT 20018	Kitob tarixi	240	8	1,2
1.13	KAXNA 20018	Kutubxona-axborot xizmati: nazariyasi va amaliyoti	240	8	4,5,6,7
1.14	KTAFM 200110	Kutubxona-axborot faoliyati menejmenti	300	10	4,5,6,7
1.15	KTP 20018	Kutubxona pedagogikasi	240	8	3,4
1.16	KTFK 200128	Kutubxona fondlari va kataloglari	780	26	1,2,3,4,5,6
1.17	HAT 20018	Hujjatshunoslik, axborot tahlili	240	8	4,5,6,7
1.18	KAFMHA 20012	Kutubxona-axborot faoliyatining meyoriy huquqiy asoslari	60	2	7
1.19	KTINF 20016	Kutubxonalarning innovatsion faoliyati	180	6	5,6,7
1.20	O‘z A 20014	O‘zbek adabiyoti	120	4	2,3
1.21	JA 20014	Jahon adabiyoti	120	4	3,4
1.22	BA 20014	Bolalar adabiyoti	120	4	1,2
1.23	BIBTNU 200124	Bibliografiyashunoslik	720	24	1,2,3,4,5,6
1.24	SAR 20016	Sohaviy axborot resurslari	180	6	5,6,7

1.25	KAFM 20014	Kutubxona-axborot faoliyati marketingi	120	4	6,7
1.26	KP 20018	Kitobxon psixologiyasi	120	4	7
1.27	EKEK 200114	Elektron kutubxona va elektron katalog	420	14	5,6,7
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>300</b>	<b>10</b>	
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	300	10	3,6,7
		<b>Jami</b>	<b>6060</b>	<b>202</b>	
		<b>Malakaviy amaliyot</b>	<b>690</b>	<b>23</b>	<b>2,4,6,8</b>
		<b>Yakuniy davlat attestatsiyasi</b>	<b>450</b>	<b>15</b>	<b>8</b>
		<b>Jami</b>	<b>1140</b>	<b>38</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	

Shuningdek, fayziga qo'shimcha qurʼon, qurʼon axborot sanʼiyatiga  
mazlumlik qilganda olib berish, shartning qoldigʻiga mazlumlik  
qilganda qolish. Oʻzbekiston respublikasi mazlumlik murosimi qilishga qilin va shartiga  
mazlumlik qilganda qolishda qo'shimcha qurʼon, qurʼon axborot sanʼiyatiga

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### Tayanch so'zlar:

Axborotni to'plash, qayta ishlash, saqlash, qidirish, uzatish, kutubxonalarot xizmatlarini ko'rsatish, kutubxonalar fondlarini shakllantirish, elektron kutubxona yaratish: elektron katalog, to'liq ma'lumotlar bazalarini shakllantirish, yig'ma elektron katalog yaratish, korporativ axborot-kutubxona tizimlari va tarmoqlari orqali fan va ta'limga tegishli ma'lumotlarga ega bo'lishni ta'minlash, kutubxonalar faoliyatini tashkil qilish va boshqarish, kutubxona-axborot faoliyatini rivojlantirishga oid ishlarni olib borish, aholining mutolaa madaniyatini shakllantirish, O'zbekiston nomoddiy madaniy merosini muhofaza qilish va targ'ib etish bilan bog'liq tashkiliy va ijodiy ishlarni tashkillashtirish.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar istemolchilari  
**ISHLAB CHIQILGAN:**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Rektor.v.v.b.

E.U.Shermanov

202 yil « \_\_\_\_ »



O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy ta'limni  
rivojlantirish tadqiqotlari  
markazi

Direktor

Sh.U.Yakubov

202



O'zbekiston Respublikasi  
Madaniyat va turizm vazirligi "Ta'lim va ilm  
fanni rivojlantirish boshqarmasi"

Boshqarma boshlig'i

N.K.Kasimov

202 yil « \_\_\_\_ »



O'zbekiston daylat konservatoriysi  
Rektor

K.T.Urinbayev

202



O'zbekiston jurnalistika va ommaviy  
kommunikatsiyalar universiteti rektori

Sherzodxon Qudratxo'ja

202 yil « \_\_\_\_ »



Respublika bolalar kutubxonasi

Direktor

D.A.O'rakov

202



Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy  
kutubxonasi

Direktor

U.A.Teshaboyeva

202 yil « \_\_\_\_ »



M.O.

**O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti  
60320400 – Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya)  
ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari va o‘quv rejasining ishlab  
chiquvchilar, turdosh oliy ta’lim muassasalari va asosiy kadrlar iste’molchilari  
o‘rtasida**

**KELISHUV DALOLATNOMASI**

2023-yil “\_\_\_\_\_”

Toshkent sh.

Biz quyida imzo chekuvchilar O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti rektori v.v.b. E.Shermanov, O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti rektori Sherzodxon Qudratxo‘ja, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi “Ta’lim va ilm fanni rivojlantirish boshqarmasi” boshqarma boshlig‘i K.Kasimov, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi direktori U.A.Teshaboyevalar birgalikda O‘zDSMIda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

**60320400-Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya) ta’lim yo‘nalishi.**

Malaka talablari hamda o‘quv rejani ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5847-sen farmoni, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-sen, 2017-yil 27-iyuldagagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iktisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-sen, 2018- yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sen Qarorlari va 2023-yil 15-iyundagi “2023/2024-o‘quv yili uchun davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari tog‘risida”gi F-31-sen Farmoyishiga hamda oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan. Mazkur malaka talablari va o‘quv rejasining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste’molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan. Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi. Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘matilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti rektori v.v.b

E. U.Shermanov

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti rektori

Sherzodxon Qudratxo‘ja

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi “Ta’lim va ilm fanni rivojlantirish boshqarmasi” Boshqarma boshlig‘i

N.K.Kasimov

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi direktori

U.A.Teshaboyeva